

Xorazm tarixini o'rganishda tarixchi olim Yahyo G'ulomovning roli

Bezodbek Sobirov

**Urganch RANCH toxnologiya universiteti
tyutori**

Annotatsiya; Ushbu maqolada Xorazmda sug'orish ishlari tarixini o'rganishga katta hissa qo'shgan o'zbek arxeolog olimi Y.G'.G'ulomovning ilmiy izlanishlari va arxeologik tadqiqotlari natijasida voxada ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va Xorazmda davlatchilik taraqqiyoti ochib beriladi shuningdek, Xorazm tarixini o'rganishga qo'shgan boy ilmiy merosi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar; Sun'iy sug'orish, qayir, o'troq turmush tarziga o'tish, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi, irrigatsiya, magistral kanallar qurish, dambalar qurilishi, davlatlarning shakllanishi.

Abstract: This article discusses the scientific research and archaeological studies of the Uzbek archaeologist **Ya. G. Gulyamov**, who made a significant contribution to the study of the history of irrigation works in **Khorezm**. As a result of his scholarly efforts, the features of the development of the productive forces in the oasis and the evolution of statehood in Khorezm were revealed. The article also examines his rich scientific heritage, which made an important contribution to the study of the history of Khorezm.

Key words: Artificial irrigation, floodplain, transition to a sedentary lifestyle, development of productive forces, irrigation, construction of main (or trunk) canals, construction of dams, formation of states.

Аннотация; В данной статье рассказывается о научных исследованиях и археологических изысканиях узбекского археолога **Я.Г.Гулямова**, который внес большой вклад в изучение истории ирригационных работ в Хорезме. В результате его научных трудов были раскрыты особенности развития производительных сил в оазисе и эволюция государственности в Хорезме. Также в статье рассматривается его богатое научное наследие, внесшее значительный вклад в изучение истории Хорезма.

Ключевые слова; Искусственное орошение, пойма, переход к оседлому образу жизни, развитие производительных сил, ирригация, строительство магистральных каналов, строительство дамб, формирование государств.

Xorazmda sug'orish ishlari tarixini o'rganishga XAEE rahbari S.P. Tolstov (1907-1976)[1] va uning safdoshi B.V. Andrianov (1919-1993)[2], birinchi o'zbek arxeolog olimi Y.G'G'ulomov (1908-1977)[3] katta hissa qo'shganlar.

Y.G'G'ulomov o'zining ko'p yillik tinimsiz izlanishlari natijasi o'laroq, "Xorazmning sug'orilishi tarixi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik uning qo'lyozmasini to'ldirib, 1957 yil ruscha va 1959 yilda o'zbek tillarida monografiya shaklida nashr qildirdi[4]. Olimning arxeologiya sohasidagi izlanishlari va topilmalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish borasidagi sa'y-harakatlari bilan sun'iy sug'orish boshlangan miloddan oldingi ikkinchi ming yillik o'rtalaridan to XX asrning 50-yillargacha bo'lgan davrni qamrab olgan asarlari — Vatanimiz tarixining noyob sahifalarini ishonarli darajada yoritishga imkon berdi. Dunyoga mashxur Sankt Peterburg shaxridagi Ermitaj muzeyi direktori, akademik B.B.Piotrovskiy ta'kidlaganidek, "Yahyo G'ulomovning O'rta Osiyo xo'jalik hayotining asosi hisoblangan sug'orish sohasidagi tadqiqotlari haqiqatan ham buyukdir[5]"

Y.G'G'ulomov Quyi Amudaryo havzasidagi yodgorliklarni sinchiklab tekshirish, yozma manbalar va etnografik ma'lumotlarni o'rganish, ularni Xorazmning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda taqqoslash asosida vohaning sug'orilishi tarixini obyektiv va kompleks asosda yoritishga erishdi. Olimning fikricha, Xorazmda dastlabki dehqonchilik ishlari Amudaryo toshqini vaqtida vujudga kelgan qayirlar va qirg'oqlar yaqinida o'tirib qoladigan hosildor tuproqda amalga oshirilgan. Shu sababdan dehqonlar har yili hosildor yer izlab, daryo o'zanlari izidan ko'chib yurishga majbur bo'lganlar.

Xorazmda suv xo'jaligi ayniqsa kushonlar saltanati hukmronlik qilgan I–II asrlarda tez rivojlangandi. Eftalitlar davridagi tushkunlik sharoitida vohada sug'orish tarmoqlari qisqargan va ularni qayta tiklash ishlari esa V–VI asr boshlariga to'g'ri keladi[6]. Aksariyat aholi ko'chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirganligi sababli dehqonchilik uchun hosildor maydonlarni o'zlashtirish, sug'orish inshootlari qurish va ulardan foydalanish — katta kuchlarni safarbar etishni talab qilardi. Mazkur ishlarni

amalga oshirish esa qudratli siyosiy uyushma — ya'ni davlat mavjud bo'lgandagina, mumkin edi.

Xorazmda sun'iy sug'orishni kengaytirishga ta'sir ko'rsatgan omillar qatorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti, qishloq va shaharlarning qad ko'tarishi, davlatchilik asoslarining o'rnatilishi kabi muhim asoslar turadi. "Bu dehqonchilik aholisi esa, — deb yozgandi Y.G'G'ulomov, — faqat voha bilan cho'l bir-biri bilan yaqindan aloqa bog'lab qudratli davlat tuzgan holdagina rivojlana olgan, irrigatsiyani rivojlantirgan, vohani himoya qilishga qodir bo'lgan, shaharlar qura olgan. Mahalliy, nisbatan passiv sug'orish usullaridan katta magistral kanallar qurishga o'tish va shuningdek, ularni saqlab turish ishi, albatta bu ishni o'z qo'liga olgan, markazlashgan kuchli davlatning ishtiroksiz bo'lmagan"[7].

Keyinchalik o'z fikrini davom ettirgan Y.G'G'ulomov yozadi: "Mustabid podshohliklarning tuzilishi sun'iy sug'orishga o'tishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U magistral kanallar qurishga, dambalar ko'tarishga va boshqa inshootlarni yaratishga faqat urug'-qabilalarnigina safarbar qilib qolmay, balki qullardan ham bu ishlarni bajarishda foydalanadi"[8]. Ustozning fikrini davom ettirgan prof. I.M. Jabborov: "Shubha yo'qki, agarda markazlashgan davlat va qullarning qattiq mehnati bo'lmaganda, o'zanini o'zgartirib turadigan daryodan suv oladigan kichik ariqlar o'rniga, kengligi 40 metr va uzunligi yuzlab kilometrdan iborat magistral kanallar, kichikroq binolar o'rnida balandligi 20-25 metr devorli va katta maydonlarni egallagan yirik shahar va qal'alar vujudga kelmagan bo'lardi. Demak, miloddan oldingi VII–VI asrlarda Xorazmdagi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanmaganda, eski ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida, Sharq va antik O'rta Yer dengizi atrofidagidek, qudratli qulchilik davlatlari vujudga kelmagan bo'lardi"[9]. Akademik Y.G'ulomovning vatan tarixini o'rganish va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish yo'lidagi fidoiyligiga O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham yuksak baxo bergan."Men o'z hayotim, ish faoliyatim davomida ma'naviy jasorat sohibi bo'lgan, har tomonlama yetuk shaxslar bilan muloqotda bo'lganim, zamondosh bo'lib yashaganimdan doimo faxrlanib yuraman. Ana shunday vatandoshlarimizdan biri mashhur arxeologik olim, akademik Yahyo G'ulomov edi. O'z davrining fidoyi allomasi bo'lgan bu insonni men yaxshi bilardim. U o'zining mustaqil fikriga ega, kerak bo'lsa, yuqori lavozim egalariga yoqmaydigan to'g'ri gaplarni ham dadil ayta oladigan ulkan olim edi."[10]

Фойдаланилган адабиётлар;

1. Tolstov Sergey Pavlovich (25.01.1907, Sankt–Peterburg – 28.12.1976, Moskva) — sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi (1953) va Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi faxriy akademigi (1976), "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan va texnika arbobi", "Tojikiston va Qoraqalpogʻistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi", tarix fanlari doktori (1942), professor (1944). Xorazmning qadimgi davr tarixi, aholisining etnik tarkibi va sugʻorilish inshootlari oʻtmishini chuqur oʻrgangan. "Qadimgi Xorazm" (1948), "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab" (1948), "Oks va Yaksartning qadimgi irmoqlari izidan" (1963), "Qoʻyqirilgan qalʼa — qadimgi Xorazm madaniyati yodgorligi" (1967) kabi monografiyalari, "Orolboʻyi skiflari Xorazmda" (1960) risolasi hamda 500 ortiq maqolalari nashr qilingan. (Qarang: Abdullayev O.B. Xorazmlik tarixchi olimlar. — Urganch, 2007. — B. 20-22; Mahmudov M. Xorazm tarixi istiqloq koʻzgusida. — Urganch, 2003. — B. 92-94).

2. Andrianov Boris Vasilyevich (19.08.1919 – 16.09.1993, Moskva) — Rossiya Fanlar akademiyasi Etnologiya va antropologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori (1971), xaritashunos, rassom. 1951 yilda "Қорақалпоқларнинг шимолий Хоразмдаги этник ҳудуди (XVIII–XIX асрлар)" мавзусида номзодлик диссертацияси ёқлаган. 200 ортиқ илмий ишлари нашр қилинган. Жумладан, "Из истории земель древнего орошения Хорезмского оазиса" / В сб.: Памяти академика Л.С. Берга. — М.–Л., 1955. — С. 350-359; "Древние оросительные системы Приаралья. В связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия" (М., 1969), "Земледелие наших предков" (М., 1978) каби монографиялари бор. Орол денгизи ва Орололди ҳудудидаги суғориш тармоқлари колдиқларини чуқур ўрганган. (Қаранг: "Этнографическое обозрение". — Москва, 1994. — № 6. — С. 169-170).

3. Gʻulomov Yahyo Gʻulomovich (18.04.1908 – 10.01.1977, Toshkent) — "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi" (1958), Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi (1966), tarix fanlari doktori (1950), professor (1955). OʻzFA "Arxeologiya" instituti tashkilotchisi va birinchi direktori (20.11.1956 – 25.10.1959). "Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадим замонлардан ҳозиргача" (1957), "Қуйи Зарафшон воҳасининг суғорилиши тарихи" (1972) каби монографиялари ва 150 ортиқ рисола ҳамда илмий мақолалари нашр қилинган. "Ўзбекистон тарихи" (Р.Н. Набиев, М.Ф. Ваҳобов билан ҳамм., ва илк бор ўзбек тилида, 1959),

“Самарқанд тарихи” (2 жилд), “Бухоро тарихи”, “Куйи Зарафшонда ибтидоий маданият ва суғорма деҳқончилиқнинг пайдо бўлиши тарихи” каби фундаментал илмий ишларнинг ёзилишида бош бўлган. (*Қаранг:* Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008. – Б. 165-166; Муҳаммаджонов А. Яҳё Ғуломов. — Т.: Фан, 1986. – 52 б.; Абдуллаев О.Б. Хоразмлик тарихчи олимлар. — Урганч: УрДУ, 2007. – Б. 22–25; Маҳмудов М. Хоразм тарихи истиқлол кўзгусида. — Урганч, 2003. – Б. 94-100).

4. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Отв. ред. — проф. С.П. Толстов. — Т.: Изд-во АН УзССР, 1957. – 313 с.; Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. Масъул муҳаррир — А.Р. Муҳаммаджонов. — Т.: ЎзФАН, 1959. – 326 б.

5. Бекмуҳаммад У. Яҳё Ғуломов (ҳаёти ва фаолияти) . — Урганч.: 2007. – Б. 14-15.

6. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Б. 114–118.

7. О‘sha joyda.

8. О‘sha joyda. – В. 101.

9. Джаббаров И.М. Древний Хорезм ... – С. 72.

10. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008.. – Б. 115.